

**TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUV JARAYONINI JADALLASHTIRISH
TEXNOLOGIYALARI****Ortiqov Sherali Ravshanbek o'g'li***Urganch RANCH texnologiya universiteti magistranti*sheraliortiqtov158@gmail.com

+998(91) 570-63-61

Annotatsiya: *ushbu maqolada zamonaviy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini jadallashtirishning ilmiy-nazariy asoslari va amaliy texnologiyalari tahlil qilinadi. Maqolada axborot hajmi ortib borayotgan sharoitda talabalarning o'zlashtirish samaradorligini oshirish, vaqtdan unumli foydalanish hamda innovatsion pedagogik metodlarni (muammoli ta'lim, interfaol usullar va raqamli platformalar) joriy etish masalalari yoritilgan. Tadqiqot natijasida o'quv jarayonini jadallashtirishning pedagogik-psixologik modelini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Аннотация: *В данной статье анализируются научно-теоретические основы и практические технологии интенсификации учебного процесса в современных образовательных учреждениях. Рассматриваются вопросы повышения эффективности усвоения знаний студентами в условиях растущего объема информации, рационального использования времени и внедрения инновационных педагогических методов (проблемное обучение, интерактивные методы и цифровые платформы). По результатам исследования разработаны рекомендации по совершенствованию педагогико-психологической модели интенсификации учебного процесса.*

Abstract: *This article analyzes the scientific-theoretical foundations and practical technologies for intensifying the educational process in modern educational institutions. The paper discusses the issues of increasing the efficiency of student learning in the context of growing information volume, rational use of time, and the implementation of innovative pedagogical methods (problem-based learning, interactive methods, and digital platforms). Based on the research results, recommendations have been developed to improve the pedagogical-psychological model of intensifying the educational process.*

Kalit so'zlar: *jadallashtirish, pedagogik texnologiya, intensivatsiya, innovatsion metodlar, ta'lim samaradorligi, raqamli ta'lim, muammoli ta'lim.*

Ключевые слова: *интенсификация, педагогическая технология, инновационные методы, эффективность обучения, цифровое образование, проблемное обучение.*

Keywords: *intensification, pedagogical technology, innovative methods, educational efficiency, digital education, problem-based learning.*

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda ta’lim jarayoni ham tez sur’atlarda takomillashib bormoqda. Bir tarafdin bu zamon talabi bo’lsa, ikkinchi tomondan yosh avlodning talabi hamdir. Chunki tarbiyalanayotgan avlod axborotlar oqimida katta bo’lmoqda. Bu esa ularda tez, oson, aniq, lo’nda va tushunarli ma’lumotlarni qabul qilishga o’rgatib qo’yyapti. Shuning uchun o’quvchilarga sifatli ta’lim va tarbiya berish usullari yangi ko’rinishga kirmoqda. Bu masala dolzarb hisoblanib, yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ham alohida e’tibor qaratmoqda: “Agar biz ta’lim-tarbiya, madaniyat va ma’naviyat sohasidagi ishlarimizni aniq tizim asosida tashkil etib, ularning samaradorligini oshirmasak, ertangi kunimizni qurolmaymiz, o’z maqsadlarimizga yetolmaymiz.”³⁹

Zamonaviy pedagog o’z ta’lim berish jarayonini tizimlashtirar ekan, u o’zidagi mavjud imkoniyatlarning barchasidan foydalana olishi zarur. Xususan, pedagogik texnologiya asosiy omil sifatida xizmat qiladi. “Pedagogik texnologiya – ta’lim shakllarini optimallashtirish maqsadida o’qitish va bilimlarni o’zlashtirish jarayonining inson salohiyati va texnik resurslarni qo’llash, ularning o’zaro ta’sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir.”⁴⁰ Shundan kelib chiqqan holda o’qituvchi dars jarayonida interfaol metodlardan, turli xil innovatsion g’oyalarga asoslangan, samarali yo’llardan foydalanishi kerak. Bu darsning zerikarli bo’lib qolishini oldini oladi hamda o’quvchining diqqatini bo’linmasdan, berilgan bilimlarni o’zlashtiradi. Interaktiv doskalardan faol foydalanish orqali turli xil qiziqarli o’yinlarga asoslangan ta’limni tashkillashtirish mumkin. Bundan maqsad o’qituvchini ma’ruzachidan, ya’ni asosiy roldan tushirib, o’quvchini asosiy rolga chiqarish. 45 daqiqa davomida faqat yozish va o’qishga asoslangan eski ta’limdan voz kechib, o’quvchining bilish, qo’llash, mulohaza qobiliyatini shakllantiruvchi dars turidan foydalanishdir. Buning uchun ta’lim metodini to’g’ri tashkillashtira olish kerak.

“Ta’lim metodi – o’quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yo’naltirilgan pedagog va o’quvchilarning birgalikdagi faoliyati usuli.”⁴¹ O’qituvchi eski dars turlariga ko’ra ma’lum bir nazariy mavzu yoki bobni o’zini o’qitar va qabul qilish jarayonida ham faqat yodlashga asoslangan savollarni taqdim etardi. Hozirda esa bu tubdan o’zgardi. Endilikda o’qituvchi o’quvchiga biror mavzuni tushuntirar ekan fanlararo integratsiyadan keng

³⁹ Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. (O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning asarlariva ma’ruzalaridan olingan fikrlar). Nashrga tayyorlovchilar: O.Salimov, Q.Quronboyev, M.Bekmurodov, L.Tangriyev. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi. 2019. – 117-bet.

⁴⁰ Omonov H.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2009, 33-b.

⁴¹ Tolipov O’. Ro’ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: “INNOVATSIYA-ZIYO”, 2019, 13-b.

foydalanadi. Mavzuni hayotiy misollar, jamiyatda bo‘layotgan yoki bo‘lib o‘tgan voqealar bilan bog‘laydi. O‘quvchi olayotgan bilimni qayerda va qanday ravishda qo‘llashni o‘zi o‘ylab topadi. Muammoli ta‘lim metodlari yordamida mavjud muammolarni yechishga o‘rganadi. Bora-bora o‘quvchi ma‘lumotlarni oylab, yillab emas, qisqa muddat ichida o‘zlashtiradi va amalga tatbiq etadi. Albatta, bu jarayonni to‘g‘ri ishlashi va yuqori natija berishi o‘qituvchining pedagogik mahoratiga ham bog‘liq.

“Pedagogik mahorat – pedagog tomonidan kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san’atkorona tashkil etilishini ta‘minlovchi bilim, ko‘nikma va malakalar majmui.”⁴² O‘quv jarayonini oqilona shakllantirishda zamonaviy metodlarning ahamiyati katta. Jumladan, worldwall.net singari bir qancha saytlar mavjudki, bu o‘qituvchining ortiqcha energiya sarflashining oldini oladi va tayyor algoritmda har kim o‘ziga moslab interaktiv o‘yinlar yaratadi. Shuningdek, turli quizlar ham tuzish imkonini beradi. O‘quvchini darsga jalb qiluvchi, doskaga chiqarish jarayonini qiziqarli qilib qo‘yadigan saytlardan “Wheel of name” (bunda barcha o‘quvchining ismi kiritiladi va kimning ismi chiqsa, doskaga chiqish navbati ekanligini bildiradi) va “Bilim.ai.kg” (kamera o‘quvchilarga qaratilganda doskaga kim chiqishini sun‘iy intellektli kamera tanlab beradi, bunda o‘quvchining rasmi ekranda chiqadi) kabilarni aytishimiz mumkin. Bu sinfdagi tenglik, darsning qiziqarliligi (ya‘ni uyga vazifa topshirish yoxud doskaga chiqish qiyin ish emas, balki qiziqarli jarayonga aylantirishi)ni ta‘minlaydi. Bunday darslarga o‘quvchi o‘z xohishi bilan tayyorlanib keladi. Shuningdek, zamonaviy texnologiya vositalari o‘quvchilarning bilimni sinashda qulaylik yaratib beradi, vaqtni tejaydi.

Biz ushbu tadqiqotimizni maktab o‘quvchilarining bir soati misolida ko‘rib chiqdik. Endi shu jarayon barcha sinflarda qo‘llansa, ta‘lim jarayonida sezilarli ravishda o‘sish kuzatiladi. O‘quvchini texnologiyadan uzoqlashtirish emas, o‘zi qiziqqan va bilgan texnologiya yordamida darsga jalb qilish osonroq kechadi. Shuningdek, bu jarayonni bosqichma-bosqich professional ta‘lim va oliy ta‘limga olib kirilsa, nur ustiga a‘lo nur bo‘lardi. Darhaqiqat, talaba mustaqil izlanib, asosiy manbalarni o‘zi mustaqil qidiradi. Bu jarayonni yengillashtirib, talabaga qulaylashtirsa, u o‘z ustida ishlashiga yanada ko‘proq vaqt va sharoit yaratilgan bo‘ladi. 80 minutlik talaba darsi ham faqat nazariyaga asoslangan emas, amaliy bilimlarga ham ega ko‘rinishga kiradi.

⁴² Tolipov O‘. Ro‘ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: “INNOVATSIYA-ZIYO”, 2019, 20 -b.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning asarlari va ma’ruzalaridan olingan fikrlar). Nashrga tayyorlovchilar: O.Salimov, Q.Quronboyev, M.Bekmurodov, L.Tangriyev. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi. 2019. – 117-bet.
2. Omonov H.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2009, 33-b.
3. Tolipov O‘. Ro‘ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: “INNOVATSIYA-ZIYO”, 2019.